ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"TERMIZ LOYIHA
EKSPERTIZA ASL
TA`MINOT" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Axatov Shavkat Muminovich
Sana: 29-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

270752 - SONLI

Obyekt nomi: Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Bog’zor" mahallasida 5 qavatli turar-joy binolari qurilishi	
Buyurtmachi:	«DREAM HOUSE SURXON» MCHJ
Bosh loyihachi:	"BINO INSHOOT ME'MOR LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Erkin tanlov savdolari asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	107108

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Termiz shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 2025-yil 13-avgustdagi 208144898 – sonli ruxsatnomasi hamda Surxondaryo Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi Arxitekturashaharsozlik Kengashi yig‘ilishining №35-sonli bayoni

1.2. Surxonlaryo viloyati qurilish va uy-joy komunal xo’jalig bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-10-03 даги 218415279-sonli xulosasi

1.3. Qurilish va uy-joy komunal xo’jalig bosh boshqarmasi tomonidan 14.08.2025 yildagi 1722-1722401-236548-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. 2025-yilda «SURXON GEOLOGIYA LABARATORIYASI» MCHJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.

1.5. 2025-yil 29 avgustdagi O‘zbekiston respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Surxondaryo viloyati filialining 01-02/10-3565-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo xududiy filiali tomonidan 2025-yil 15 oktyabrda berilgan 22401115895 -sonli texnik sharti.

1.7. O‘zsuvta’minot “Surxondaryo suv ta’minoti” MChJ Termiz shahar bo’limi tomonidan 2025-yil 21 oktyabrda berilgan 103-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. Kitob. « BINO INSHOOT ME'MOR LOYIHA » MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan 2025-yilda bajarilgan, 01-16 sonli SHNQ talablariga asosan ishlangan ishchi loyihasi.

2.3. Kitob « BINO INSHOOT ME'MOR LOYIHA » MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan 2025-yilda bajarilgan, loyiha topshirig’i.

2.3. Kitob. « BINO INSHOOT ME'MOR LOYIHA » MCHJ loyiha tashkiloti tomonidan 2025-yilda bajarilgan, umumiy tushuntiruv yozuvi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	1-BINO	5	410	2050	7716	30
Ko'p xonadonli turar joy binosi	3-BINO	5	216	1080	4065	15
Ko'p xonadonli turar joy binosi	2-BINO	5	354	1770	6662	25
Jami:			**980**	**4900**	**18443**	**70**

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,48 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Hisobiy zilzilabardoshligi – 8 ball.

Mustahkamligi va deformatsion xususiyatlariga ko‘ra aralash 8 metr qalinlikdagi tuproqlar ikki MGEga bo‘linadi.

MGE-1-Litologik nuqtai nazardan aniqlangan chuqurligi 8,0 m gacha bo‘lgan joy qumli tuproqlardan tashkil topgan. Birinchi muhandislik-geologik element (ige-1) - er osti suvlarining kapillyar to'yinganligi zonasida ham,UPV dan yuqori bo'lgan jigarrang, changli, kam nam qum bilan ifodalanadi. Qatlamning kuchi 0,3 dan 8 m gacha.

Ige - 1 tuproqlarining deformatsiya xususiyatlarining standart qiymatlari tabiiy namlik 11,5 MPa bo'lgan deformatsiya modulining qiymatlari bilan tavsiflanadi.

MGE-2 Ikkinchi muhandislik-geologik element (ige-2) - jigarrang qum, mayda, suv bilan to'yingan, suyuq,bo'shashgan, er osti suvlarining kapillyar to'yingan zonasida ham, UPV ostida ham joylashgan.

Qatlam quvvati 7,0 m dan 12,0 m gacha.

Ige - 2 tuproqlarining deformatsiya xususiyatlarining standart qiymatlari tabiiy namlik 11,5 MPa bo'lgan deformatsiya modulining qiymatlari bilan tavsiflanadi

Tuproq toifasi seysmik xususiyatiga ko‘ra – III (uchinchi).

Gruntning cho‘kuvchanligi – II .

Gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,3 m 10 yilda bir marotaba, 0,35 m 50 yilda bir marotaba.

3.2. Bosh reja.

Ushbu ob’ekt Surxondaryo viloyati Termiz shahar hududida joylashgan.

Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar ko‘zda tutilgan.

5 qavatli turar-joy binolari

3.3. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Loyihalanayotgan bino – yerto‘lasi bor, 5 *qavatli, 1 padezli, 3 ta blokdan iborat.*

Loyihalanayotgan 1-binoning rejadagi tarx o‘lchamlari 17.85 x 25.00 m . Bino balandligi tom qoplamaning yuqori qismigacha 18.82 mni tashkil qiladi.(410 m2, 7716 m3, 30 xonadon)

Loyihalanayotgan 2-binoning rejadagi tarx o‘lchamlari 14.40 x 24.60 m . Bino balandligi tom qoplamaning yuqori qismigacha 18.82 mni tashkil qiladi.(354 m2, 6662 m3, 25 xonadon)

Loyihalanayotgan 3-binoning rejadagi tarx o‘lchamlari 14.40 x 15 m . Bino balandligi tom qoplamaning yuqori qismigacha 18.82 mni tashkil qiladi.(216 m2, 4065 m3, 15 xonadon)

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Umumiy maydoni	–	2332 m^2
Qurilish maydoni	–	980 m^2
Qurilish xajmi,	–	18443 m^3
Foydalaniladigan umumiy maydoni	–	4900 m^2
Quvvati	–	70 xonadon

Xonalarni ichki pardozlash:

Shift –suvoq va yorqin rangdagi suvli emulsiya bo‘yog‘i bilan 2 marta bo‘yalgan.

Devorlar va pardevorlar–suvoq, suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan va boshqalar bilan qoplangan.

Pollar-keramik plita va boshqalar.

Eshiklar – yong‘inga bardoshli,

Derazalar – plastik profillardan.

Tashqi pardozlash:

Devorlar – dekorativ fasad suvog‘i qoplangan.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Binoning konstruktiv tuzilmasi – temirbeton ustunlar. Tashqi kontur bo‘ylab rigellar o‘rnatilgan.

Poydevori – qalinligi 3000 mm va eni 400 mm bo‘lgan monolitli temirbeton marka B15.

Poydevor yostiq – qalinligi 500 mm, eni 1100 mm va 2300 mm bo‘lgan monolitli temirbeton marka B15.

Tashqi devorlari – 380 mm qalinlikdagi g’isht keramicheskiy M75 kg*sila/m3 .

Tom qoplama – metall konstruksiyali fermadan(ugoloklardan 50x50x5mm).

Binoning konstruktiv yechimlari seysmik holatga SHNK 1.02.08-09 dan chiqmagan holatda javob beradi

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi –F1.2.

Konstruktiv yong‘in xavf turi –S0.

Loyihada qo‘riqlash va yong‘in xavfida xabar berish tizimi ko‘zda tutilgan.

Bino avtomobil yo‘llari va rejalashtirilgan hudud bo‘ylab o‘t o‘chirish mashinalari uchun yong‘inga qarshi yo‘l bilan ta’minlangan. Barcha yong‘in gidrantlarga o‘t o‘chirish mashinalariga kirish imkoniyatiga ega. Binolar asosiy yong‘inga qarshi uskunalar bilan jihozlangan.

3.6. Energiya samaradorlik.

Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.

Yoritish tizimida energiya tejamkor harakat sensorli svetodiodli chiroqlar foydalanilsin;

Elektr energiyasining iste’moli hajmining kamida 25-30 foizi ushbu obyektda o‘rnatiladigan quyosh panellari orqali ta'minlansin;

3.7. *Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qulay muhit yaratish loyiha yechimlari.*

-Avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 10 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilsin,

-Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlansin,

-Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 cm balandlikdagi bortlar nazarda tutilsin,

-Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilsin,

-Ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan, shuningdek maxsus xojatxonalar loyihalansin.

-Ishchi loyiha “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-24 talablariga to’liq javob beradi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART xulosasiga va loyixalashtirish topshirig‘iga asosan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha Surxondaryo viloyati qurilish va uy-joy komunal xo’jalig bosh boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2025-10-03 даги 218415279-sonli xulosasi)

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- ishchi chizmalar taqdim etildi,;
- sarxisob smetasida arifmeti xatolari to‘g‘rilandi;

- Taqdim etilgan loyixani qurilish qiymati 26 753 085,290 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, ekspertiza natijasiga ko‘ra – 416 955,750 ming so‘m miqdorida kamaytirilib – 26 336 129,540 ming so‘mga tasdiqlash uchun tavsiya etildi, shu jumladan:

-qurilish montaj ishlari – 19992727,011 ming.so‘m,

-qo‘shimcha qiymat solig‘i – 2687360,157 ming.so‘m,

-asbob uskunalar – 2401940,965 ming so‘m,

-buyurtmachi boshqa harajatlari – 1254101,540 so‘m,

6.3. Buyurtmachiga ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi, ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ishlab chiqishi va ekspertiza ko‘rigiga taqdim etishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1**“Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Bog’zor" mahallasida 5 qavatli turar-joy binolari qurilishi”** Loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ekspert mutaxassislar:
konstruktsiya- T.Ismoilov,
smeta-X.Muminov,
EO-PS- M.Bozorov
OV-VK- M.Toshqulov